

Buxoro davlat universiteti  
O'quv-metodik kengash to'g'risida

NIZOM



Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5847-son Farmoni, 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta'lif muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-60-son qarori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi «Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 824-son qarori, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirining 2022-yil 22-avgustdaggi 284-sonli buyrug'i va oliy ta'limga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan vazifalardan kelib chiqib Buxoro davlat universitetida (keyingi o'rinnarda Universitet deb yuritiladi) O'quv-metodik kengashning (keyingi o'rinnarda Kengash deb yuritiladi) asosiy vazifalari, vakolatlari, tarkibi hamda uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

**I bob. Umumiy qoidalari**

1. Kengash Universitetda o'quv-pedagogik jarayonga innovatsion ilg'or va xalqaro ta'lif standartlarini joriy etish talablaridan kelib chiqqan holda o'quv jarayonini kredit-modul tizimi, zamonaviy ta'lif texnologiyalari hamda interaktiv ta'lif uslublarini keng joriy etish va foydalanish asosida tashkil etish, ta'lif sifatini oshirish, shuningdek, ta'lif jarayonini o'quv materiallar bilan ta'minlashni amalga oshirish faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kollegial organ hisoblanadi.

2. Kengash o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining Hay'at qarorlari va buyruqlariga, Universitet Ustavi va Universitet Kengashi qarorlari, Universitet rektorining buyruqlari va mazkur Nizomga amal qiladi.

3. Kengash tarkibi o'quv ishlari bo'yicha prorektor tavsiyasiga ko'ra rektorning buyrug'i bilan tasdiqlanadi. Kengash tarkibiga o'quv ishlari bo'yicha prorektor (rais), hamrais, rais o'rinosari, kotib, tarkibiy bo'linmalar rahbarlari va yuqori ilmiy salohiyatga ega professor-o'qituvchilar kiradi.

4. Kengash faoliyatini tashkil etishga doir hujjatlarni yuritish uchun Kengash a'zolaridan biri Kengash kotibi etib tayinlanadi.

5. Kengash a'zolari uning ishida jamoatchilik asosida ishtiroy etadilar.

6. Kengashning yig'ilishi barcha pedagog - xodimlar uchun ochiq hisoblanadi.

**II bob. Kengashning asosiy vazifalari va vakolatlari**

7. Kengashining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

universitetda o'quv-uslubiy ishlarni belgilash, samarali tashkil etish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga qaratilgan istiqbollari tavsiyalarni ishlab chiqish;

mamlakatdagi islohotlarning zamonaviy bosqichi, ehtiyojlari va ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bakalavriat ta'lif yo'naliishlari, magistratura mutaxassisliklari bo'yicha tegishli kafedralarda ishlab chiqilgan va fakultetlarning o'quv-uslubiy kengashlari tomonidan tavsiya

etilgan malaka talablari, o'quv rejalarini va dasturlarini ko'rib chiqish, muhokama qilish va ularni tasdiqlash uchun Universitet kengashiga kiritish;

o'quv tusdagi tadbirlar turlari va ularga ajratilgan soatlar hajmini ishlab chiqilishini ta'minlash va tasdiqlash;

ta'limning kredit-modul tizimini va talabalar bilimini baholash usullarini takomillashtirish yuzasidan muhokama qilish va tavsiyalar ishlab chiqish;

o'quv jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda interaktiv ta'lim uslublarini keng qo'llash bo'yicha takliflar taqdim etish;

ta'limni rivojlantirish yo'li bilan o'quv jarayoni va amaliyat o'rtasida uzviy aloqani ta'minlashga ko'maklashish;

xorijiy hamkorlar bilan birgalikda o'quv-ta'lim jarayoniga xorijiy olimlar va mutaxassislarni faol jalb qilish bo'yicha kiritilgan takliflar yuzasidan axborotlarni eshitish;

universitet tarkibiy bo'linmalarining o'quv va o'quv-uslubiy faoliyati natijalarini ko'rib chiqish, ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan axborotlarni eshitish hamda uni muvofiqlashtirib borish;

universitetni yangi avlod o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash hamda darsliklar va o'quv qo'llanmalarini yangilab borish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish;

universitetda foydalanish uchun xorijiy o'quv adabiyotlar ro'yxatini shakllantirish, ularni xarid qilish va foydalanish tartibini amalga oshirishga ko'maklashish;

xorijiy o'quv va ilmiy adabiyotlarni tarjima va tahrir qilish hamda ekspertizadan o'tkazishni amalga oshiradigan mutaxassis va professor-o'qituvchilar mehnatiga haq to'lash bo'yicha tegishli tavsiyalar taqdim etish;

o'quv adabiyotlar, shu jumladan xorijiy adabiyotlar fondini muntazam yangilab borish yuzasidan tavsiyalar berish;

muallif va mualliflar jamoasi tomonidan o'quv adabiyotlar chop etilishini muvofiqlashtirish va nashrga tavsiya etish.

har bir fanning xususiyatlarini inobatga olgan holda kafedralar tomonidan ishlab chiqilgan ishchi o'quv dasturlarida talabalar bilimini baholash mezonlarini muhokama qilish va tasdiqlash;

respublikamizdagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda kadrlarga bo'lgan ehtiyojlardan kelib chiqib, yangi istiqbolli bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini klassifikatoriga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Kengash qonun hujjatlarda belgilangan boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

8. Kengash o'z vazifalarini amalga oshirishda quyidagi vakolatlarga ega:

o'z faoliyatiga oid ish rejasini tasdiqlaydi;

universitet o'quv faoliyatining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha muhokamalar tashkil qiladi;

Universitet, fakultetlar va kafedralarining o'quv, o'quv-uslubiy ishlarini takomillashtirishga ko'maklashadi;

bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun malaka talablari, o'quv rejalarini ishlab chiqilishini ta'minlaydi hamda ularni tasdiqlash uchun Universitet kengashiga kiritadi;

Universitetda talabalar malakaviy amaliyotlarining natijalarini ko'rib chiqadi, muhokama qiladi va tegishli tavsiyalar beradi hamda qarorlar qabul qiladi;

Universitetni bitirayotgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha davlat attestatsiya komissiyasi hisobotlarini ko'rib chiqadi, muhokama qiladi va Universitet Kengashiga tavsiya etadi;

ta'lim sifati va talabalar o'zlashtirish darajasini doimiy tahlil qiladi;

o'quv jarayonini tashkil etish sohasida xorijiy tajriba va yangiliklarni o'rgangan holda, umumlashtiradi, muhokama qiladi va joriy qilinishi bo'yicha Universitet kengashiga taklif kiritadi;

pedagog xodimlarning malaka oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha rejalarini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;

fakultet dekanlarining o'quv, o'quv-uslubiy hisobotlarini ko'rib chiqadi, muhokama qiladi va o'quv-uslubiy faoliyatni takomillashtirish bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

fakultetlar o'quv-uslubiy kengashlari faoliyatlarini nazorat qiladi va hisobotlarini eshitib boradi;

fakultetlar sifat komissiyasi faoliyatini nazorat qiladi va hisobotlarini eshitadi;

darsliklar, o'quv qo'llanmalar va boshqa adabiyotlarning nashr rejasini muhokama qiladi va tasdiqlaydi;

o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etishning tashkiliy masalalariga taalluqli ishlab chiqilgan hujjatlar namunalarini muhokama qiladi va tasdiqlydi;

o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini talablari joriy etilishi munosabati bilan o'quv adabiyotlarni elektron ta'lim platformasi kontentlari asosida tayyorlash bo'yicha talablarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

tegishli o'quv yili uchun o'quv jarayonlari grafigini ishlab chiqilishini ta'minlaydi va tasdiqlaydi;

talabalar bilimini baholash tartibi va mezonlarini ishlab chiqishni ta'minlaydi va tasdiqlaydi;

reyting qaydnomalarining hamda yakuniy jamlovchi reyting qaydnomalarining shakllari uchun namunalarni tasdiqlaydi;

kafedralar o'quv va o'quv-uslubiy ish rejali bajarilishi holatini muhokama qiladi;

kafedralar tomonidan modullar doirasida tashkil etilgan master-klass, ochiq dars va treninglar o'tkazilishi, xorijiy va amaliyotchi mutaxassislarning o'quv jarayoniga jalb qilinganligi bo'yicha axborotlarni eshitib boradi;

o'quv adabiyotlarining belgilangan talablarga muvofiqligini aniqlaydi, o'quv adabiyotlarini tayyorlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

Elektron o'quv adabiyotlariga darslikka qo'yilgan talablarga muvofiq elektron dasrliklarning yaratilganligini ekspertizadan o'tkazadi va joriy etish uchun tavsiya etadi.

o'quv adabiyotlarini ekpertizadan o'tkazish maqsadida tegishli soha mutaxassisliklari bo'yicha ekspert guruhlarini tashkil etadi hamda mavjud talablarga mos bo'lgan o'quv adabiyotlarni chop etish uchun nashrqa tavsiya etadi;

nashr etishga ruxsatnama olinishi talab etiladigan o'quv adabiyotlariga nashr ruxsatnomasini berish to'g'risida qaror qabul qilish

mutaxassisliklar bo'yicha "Eng yaxshi darslik" va "Eng yaxshi o'quv qo'llanma" tanlovlari shartlarini belgilaydi va o'tkazadi;

xorijiy olimlar va mutaxassislarni jalb etgan holda yangi avlod darsliklari va o'quv qo'llanmalari turkumini tayyorlash hamda xorijiy o'quv adabiyotlarini tarjima qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi va zarurtga ko'ra Universitet kengashi yoki rektorga takliflar kiritadi;

xorijiy o'quv adabiyotlarni tarjima va tahrir qilish hamda ekspertizadan o'tkazishni amalgaga oshiradigan mutaxassis va professor-o'qituvchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlanadirish bo'yicha universitet rektoriga tavsiya kiritadi;

Universitet tarkibiy bo'linmalarining o'quv yo'nalishdagi o'zaro hamkorligini tahlil qiladi va hisobotlarini eshitadi hamda universitet o'quv faoliyatini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi;

mazkur nizomiga qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritadi.

### **III bob. Kengash ishini tashkil qilish**

9. Kengashning ish rejasi o'quv yili uchun tuziladi hamda Kengash tomonidan tasdiqlanadi.

10. Kengash ish rejasi bajarilishi ustidan umumiylor nazorat Kengash raisi tomonidan amalga oshiriladi.

11. Kengash ish rejasi bajarilishi bo'yicha ma'lumotlar Kengash kotibi tomonidan umumlashtirilib boriladi.

12. Kengash ish rejasiga muvofiq kengash majlisi kun tartibiga kiritilishi lozim bo'lgan masalalar yuzasidan barcha zarur materiallar taqdim etilgach, Kengash kotibi majlic kun tartibi loyihasini tuzadi va tasdiqlash uchun Kengash raisiga taqdim etadi.

13. Kengash majlisi o'tkaziladigan kun, vaqt va joy, shuningdek kun tartibi Kengash raisi tomonidan tasdiqlanadi.

14. Kengash majlisi kun tartibi Kengash majlisidan uch kun oldin a'zolarga va Kengash raisining topshirig'iga muvofiq boshqa shaxslarga yetkazilishi lozim.

15. Kengash majlislari ikki oyda bir marta o'tkaziladi. Kengash majlislarida muhokama qilinadigan masalalar yuzasidan, Kengash a'zosi bo'lman universitet prorektorlari, tarkibiy bo'linma rahbarlari hamda boshqa davlat va nodavlat tashkilotlar, shu jumladan oliy ta'lim muassasalarining malakali mutaxassislari ham taklif qilinishi mumkin.

Kengash faoliyatiga belgilangan tartibda hamkor xorijiy tashkilotlarning, xususan oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarining yetakchi olimlari va malakali mutaxassislari taklif etilishi mumkin.

16. Kengash majlisiga Kengash raisi raislik qiladi. Kengash raisi yo'qligida uning vazifasini Kengash hamraisi yoki Kengash raisi o'rinnbosari amalga oshiradi.

17. Kengash majlisida a'zolarining kamida yarmi ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

18. Kengash majlisida ko'rib chiqilgan masalalar bo'yicha oddiy ko'pchilik ovoz bilan qarorlar qabul qilinadi.

19. Kengash majlisida Kengash kotibi tomonidan bayonnomma yuritiladi. Kengash majlisida muhokama qilingan barcha masalalar, bildirilgan taklif va mulohazalar Kengash majlisi bayonnomasiga kiritilishi lozim.

20. Kengash majlisi bayonnomasi Kengash raisi va kotibi tomonidan imzolanishi lozim.

21. Kengash a'zolari va yuqori ilmiy salohiyatga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar, yosh olimlar va iqtidorli talabalar tarkibidan dolzarb o'quv-uslubiy vazifalarni hal etish borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqadigan ishchi va ekspert guruhlar tashkil etilishi mumkin.

22. Kengash qarorlari Kengash raisi tomonidan imzolangandan keyin kuchga kiradi.

23. Kengash qarorlari Universitet rektori buyrug'i yoki O'quv ishlari bo'yicha prorektor farmoyishi bilan amalga kiritiladi.

24. Kengash qarorlari Universitetning fakultetlari, kafedralari, pedagog xodimlari tarkibi hamda o'quv-uslubiy ishlarni tashkil etishni ta'minlashda ishtirok etuvchi tuzilmalar uchun majburiy hisoblanadi.

## V. Yakuniy qoidalar

25. Kengash qarorlari ijrosini ta'minlamaslik mehnat qonunchili-giga muvofiq intizomiy jazo chorasi qo'lashga asos bo'ladi.

26. Kengashning faoliyati qonunchilikda belgilangan tartibda tugati-lishi mumkin.



Buxoro davlat universitetining 2022-yil  
27-avgustdaggi 3874-sonli buyrug'iga  
 3-ilova

O'quv-metodik kengashi a'zolari tarkibi



Nº	F.I.SH.	Lavozimi
1.	R.G. Jumayev	O'quv ishlari bo'yicha prorektor, <b>rais</b>
2.	M.A. Tursunov	O'quv - uslubiy boshqarma boshlig'i, <b>rais muovini</b>
3.	M.Y. Faranova	Ta'larning kredit modul tizimini boshqarish sektori bosh mutaxassisasi, <b>kotiba</b>
4.	S.S. Muxlisov	O'quv - uslubiy boshqarma boshlig'i muovini
5.	A.A. Turayev	Magistratura bo'limi boshlig'i
6.	Z. Nurov	Ta'limgan sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i
7.	A.A. Qilichev	Jismoniy va yuridik shaxsfarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i
8.	H.M. Mustafoyev	O'qitishning texnik vositalar bo'limi boshlig'i
9.	M.Z. Husenov	Raqamli ta'limgan texnologiyalari markazi bo'limi boshlig'i
10.	S.K. Hamidov	Marketing va karyera bo'limi boshlig'i
11.	A.A. Aminov	Fizika-matematika fakulteti dekan muovini
12.	A.A. Avezov	Axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini
13.	S. Abdurahmonov	Tabiiy fanlar fakulteti dekan muovini
14.	A.A. Rustamov	Agronomiya va biotexnologiya fakulteti dekan muovini
15.	S. Xudoyev	Xorijiy tillar fakulteti dekan muovini
16.	S.S. Sharipov	Filologiya fakulteti dekan muovini
17.	Q.R. Kurbonov	Tarix, va yuridik fakulteti dekan muovini
18.	Y. Azimov	Pedagogik ta'limgan fakulteti dekan muovini
19.	J.S. Botirov	San'atshunoslik fakulteti dekan muovini
20.	X. Hakimov	Jismoniy madaniyat fakulteti dekan muovini
21.	A.R. Xadjayev	Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekan muovini
22.	O.H. Rahimov	Qo'shma ta'limgan dasturlarini muvofiqlashtirish bo'limi bo'shlig'i
23.	S.S. Raupov	Yurisprudensiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasidagi dotsenti;

24.	H.H. To'rayev	Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi professori;
25.	I.I. Raxmatov	Geliofizika va qayta tiklanuvchi energiya manbalari kafedra mudiri, dotsent;
26.	M.B. Rajabova	O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti;
27.	Y.S. Saidov	O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi professori;
28.	F.H. Jumayev	Tuproqshunoslik, Agrokimyo va o'simliklar himoyasi kafedrasi dotsenti;
29.	A.E. Xolliyev	Botanika va o'simliklar fiziologiyasi kafedrasi mudiri;
30.	B.B. Umarov	Organik va fizkolloid kimyo kafedrasi professori;
31.	B.N. Navruzzoda	Marketing va menejment kafedrasi professori;
32.	Sh.Sh. Olimov	Pedagogika kafedrasi mudiri;
33.	M.B. Fayzullayev	Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasi professori;
34.	N.J. Yadgarov	Tasviriy va amaliy san'at kafedrasi professori;
35.	R.X Qodirov	Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasi dotsenti;
36.	A.A. Haydarov	Ingliz tilshunosligi kafedrasi professori;



O'quv adabiyotlarini universitet ichki ekspertizasidan o'tkazadigan ekspertlar guruhni tarkibi

T/R	FIO	Kafedrasi nomi
1	Fayzullayev Otabek Muhammedovich	Fakultetlararo chet tillari kafedrasi mudiri v.b., f.f.f.d. (PhD), dotsent
2	Umarov Otabek Rafoilovich	Agronomiya va tuproqshunoslik kafedrasi mudiri v.v.b., q-x.f.f.d. (PhD)
3	Yuldashev Laziz Tolibovich	Biotexnologiya va oziq-ovqat xavfsizligi kafedrasi mudiri v.v.b., b.f.f.d (PhD)
4	Xolliyev Askar Ergashevich	Botanika va o'simliklar fiziologiyasi kafedrasi mudiri, b.f.d., professor
5	Toshov Xayot Muxammadovich	Zoologiya va umumiy biologiya kafedrasi mudiri v.v.b., b.f.f.d (PhD)
6	Jalolov Ozodjon Isomiddinovich	Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasi mudiri, f.-m.f.n.
7	Shafriyev Tursun Rustamovich	Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasi muðiri, t.f.f.d. (PhD)
8	Eshonqulov Husniddin Primovich	O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, f.f.d., dotsent
9	Rajabov Dilshod Zaripovich	O'zbek tilshunosligi kafedrasi mudiri v.v.b., f.f.d., professor
10	Nosirov Otabek Temirovich	Rus tilshunosligi kafedrasi mudiri v.v.b.
11	Nigmatova Lolaxon Xamidovna	Rus adabiyotshunosligi kafedrasi mudiri v.v.b., f.f.d., dotsent
12	Fayziyev Shaxobiddin Shavkatovich	Fizika kafedrasi mudiri, f.-m.f.f.d. (PhD), dotsent
13	Rahmatov Ilhom Ismatovich	Qayta tiklanuvchi energiya manbalari kafedrasi mudiri v.v.b., f.-m.f.n, dotsent
14	Dilmurodov Elyor Baxtiyorovich	Matematik analiz kafedrasi mudiri, f-m.f.f.d. (PhD)
15	Durdiyev Umid Durdimurodovich	Differensial tenglamalar kafedrasi mudiri, f-m.f.f.d. (PhD)
16	Murtazoyev Azizbek Nusratovich	Elektronika va texnologiya kafedrasi mudiri, , t.f.f.d. (PhD)
17	Abdullayev Asliddin Junaydullayevich	Lopisodiyot kafedrasi mudiri, i.f.f.d.. (PhD), dotsent



18	Sherov Anvar Umarovich	Agrobiznes va logistika kafedrasi mudiri v.b., i.f.f.d. (PhD)
19	Sunnatov Yusuf Usmonovich	Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrasi mudiri v.b., i.f.f.d. (PhD)
20	Xurramov Ortiq Qayumovich	Marketing va menejment kafedrasi mudiri v.b., dotsent
21	Ibragimov Nutfillo Salimovich	Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasi mudiri, i.f.d. (DSc), dotsent
22	Qo'ldoshev Rustam Avezmurodovich	Maktabgacha ta'lif kafedrasi mudiri, p.f.f.d. (PhD)
23	Ro'ziyeva Mohichehra Yoqubovna	Boshlang'ich ta'lif nazariyasi kafedrasi mudiri, f.f.f.d. (PhD), dotsent
24	Hamroyev Alijon Ro'ziqu洛ovich	Boshlang'ich ta'lif uslubiyoti kafedrasi mudiri p.f.d., dotsent
25	Olimov Shirinboy Sharopovich	Pedagogika kafedrasi mudiri, p.f.d., professor
26	Shukurov Rahim Salimovich	Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasi mudiri, professor
27	Sattorov Anvar Ergashovich	Sport faoliyati kafedrasi mudiri, p.f.f.d. (PhD), dotsent
28	Xolov Yoqub Davronovich	Ekologiya va geografiya kafedrasi mudiri b.f.f.d. (PhD)
29	Nazarov Sayfullo Ibodullayevich	Umumiylig va noorganik kimyo kafedrasi mudiri, t.f.n., dotsent
30	Abduraxmonov Sayfiddin Fayzullaevich	Organik va fizkolloid kimyo kafedrasi mudiri v.b., k.f.f.d. (PhD)
31	Temirov Farrux Umidovich	Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi mudiri, t.f.f.d. (PhD)
32	Rashidov Oybek Rasulovich	Jahon tarixi kafedrasi mudiri, t.f.f.d. (PhD), dotsent
33	Muzaffarov Firuz Davronovich	Yurisprudensiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasi mudiri, f.f.f.d. (PhD) dotsent
34	Namozov Bobir Baxriyevich	Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrasi mudiri, f.f.d., dotsent
35	Nazarov Akmal Mardonovich	Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi mudiri v.b., p.f.f.d., (PhD) dotsent
36	Mamatov Dilshod Kedirovich	Tasviriy va amaliy san'at kafedrasi mudiri, p.f.f.d., (PhD), dotsent



<b>37</b>	Rajabov To'xtasin Ibodovich	Musiqa ijrochiligi va kafedrasi mudiri, p.f.f.d., (PhD), dotsent
<b>38</b>	Rasulov Zubaydullo Izomovich	Ingliz tilshunosligi kafedrasi mudiri, f.f.n., dotsent
<b>39</b>	Xodjayeva Dilafro'z Izatilloyevna	Ingliz adabiyotshunosllgi kafedrasi mudiri v.b., f.f.f.d, dotsent
<b>40</b>	Bobokalonov Odilshoh Ostonovich	Fransuz tillari kafedrasi mudiri v.b.
<b>41</b>	Ro'ziyev Yarash Bozorovich	Nemis tillari kafedrasi mudiri v.b. f.f.n., dotsent
<b>42</b>	Kosimova Nafisa Farxadovna	Tarjimashunoslik va lingvovidaktika kafedrasi mudiri, PhD, dotsent

